



The Night of Mi'raj in the Epics Sab'ai Sayyor and Saddi Iskandariy

Boboravshan RASULOV¹

Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025
Received in revised form
10 April 2025
Accepted 2 May 2025
Available online
25 June 2025

Keywords:

Isra,
Mi'raj,
ascension,
journey,
seventh heaven,
verse (ayah),
hadith,
basmala,
praise (hamd),
supplication (munajat),
epic,
perfect human,
na't,
angel,
Buraq steed.

ABSTRACT

This article analyzes the na't (eulogies of the Prophet) chapters in the Khamsa epics by the sultan of the realm of words, Nizomiddin Mir Alisher Navoi. In classical Eastern literature, it is difficult to imagine praise of the Prophet (peace be upon him) without mention of the Isra and Mi'raj night. It is well known that the night of Isra and Mi'raj holds a significant place in the history of our Islamic religion and in the works of our classical writers, including that of Hazrat Navoi.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss6/S-pp106-113>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

“Sab'ai sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlarida Me'roj tuni

Kalit so'zlar:

Isro,
Me'roj,
ko'tarilish,
sayr,
yettinchi osmon,
oyat,
hadis,

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada so'z mulkining sultoni Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hazratlarining “Xamsa” dostonlaridagi na't boblari tahlil etiladi. Sharq mumtoz adabiyotida payg'ambar alayhissalom na'tlarini Isro va Me'roj tunisiz tasavvur etishimiz qiyin. Bizga ma'lumki, islom dinimiz tarixida Isro va Me'roj tuni mumtoz adiblarimiz, jumladan, hazrat Navoiyning asarlarida munosib o'rin egallagan.

¹ PhD student, Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

basmala,
hamd,
munojot,
doston,
komil inson,
na't,
farishta,
Buroq oti.

Ночь Миладжа в поэмах «Семь планет» и «Стена Искандера»

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Исра,
Миладж,
восхождение,
путешествие,
седьмое небо,
аят,
хадис,
басмала,
хвала,
мольба,
поэма,
совершенный человек,
наат,
ангел,
конь Бурак.

В данной статье анализируются главы наата (восхваления пророка) в поэмах «Хамса» великого поэта Низомиддина Мира Алишера Навои – султана слова. В классической восточной литературе трудно представить восхваления пророка (aleyhissalam) без упоминания Исра и Миладжа. Как известно, ночь Исра и Миладжа занимает достойное место в произведениях наших классиков, в том числе в творчестве Хазрата Навои.

Mumtoz adabiyotimizni basmala, hamd va na'tlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Mumtoz shoir va yozuvchilarimiz asar ta'lif qilishda albatta "odobi tasnif"ga amal qilishgan. Muqaddima boblari alohida ahamiyat kasb etgan. Alloh taologa hamd, payg'ambarga na't, munojot boblari qatorida me'roj tuni ta'rifiga alohida e'tibor beriladi.

Alisher Navoiy o'z dostonlarida an'anaviy muqaddima boblarni to'liq keltirgan, jumladan, Payg'ambar sallallohu alayhi vasallam tavalludi, nabiyligi, mo'jizalari va me'roji haqida alohida boblar keltiradi. Na't boblar dostonlarning kirish qismida an'anaviy boblar sifatida hamd va munojotlardan so'ng keladi. Alisher Navoiy ijodida na'tlar muhim ahamiyatga ega. Ularda shoirning islomga bo'lgan munosabati aks etgan. Hazrati Navoiy Muhammad sallallohu alayhi vasallamni insoniyat tarixida yangi, haq dinni joriy etgan ulug' zot, karomatli va sharofatli inson sifatida kuchli muhabbat bilan tasvirlagan.

"Xamsa" asari hazrati Navoiyning emas, balki turkiy adabiyotning ham durdonasi hisoblanadi. Ushbu beshlikning to'rtinchi dostoni hisoblangan "Sab'ai sayyor" dostonida an'anaviy hamd, na't boblariga alohida e'tibor berilgan. Uchinchi bobida payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallam madhi keltiriladi.

Bobda Payg'ambarimizning asli qurayshiy, yerlari abtahi, mazhablari hoshimiy, manzillari Yasrib ekanligi aytilgach, U zotning nuri "Lot" bilan "Uzzo" ismli butlarni shikastlagani, ismlarining harflari yechilganda, ikkita "mim" harfining etaklari osilib, kufr eli motamining zulmatiga, din elining esa ulug'vorligiga aylanishi aytiladi.

"Sab'ai sayyor" dostonning to'rtinchi bobida Me'roj tuniga ta'rif berilgan. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam huzuriga elchi Jabroil alayhissalom kelib, Haq taoloning salomini yetkazganligi va oshiq o'z mahbubining visoliga erishmoq niyatida

ekanligini xabar qilgani, payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam Yaratuvchining huzuriga borganlarida ummatlarining gunohini kechirishni iltimos qilganlari va barcha istaklari qabul qilinganligi haqida so'z yuritiladi.

Dostonda na't 92 baytdan iborat bo'lib, Isro va Me'roj kechasiga bag'ishlangandir. U "Ul musofiri bavodiypaymo, balki ul rokibi samo-votpaymo me'roji kechasining ta'rifikim, buroqi barqgomliq va payki buroq xiomliq qildi va ul raxsh bila payk xayol yetmas ergacha chopti va ul chopmoq bila hakimi xirad fahmi bovar etmas nimalar topti", – deb nomlanadi. Mazkur na't quyidagi baytlar bilan boshlangan:

*Ul kechakim edi abir sirisht,
Qadr aro g'ayrati savodi bihisht,*

*Hur gisularin jahong'a ochib,
Anbaru mushkin osmong'a sochib.*

*Gisuyi mushkbo' jahonni tutub,
Mushkining atri osmonni tutub.*

*Halqai zulfdin ruxi anvar,
Haryon ul tunda ko'rguzub axtar.*

*Yo`qki, havro yoyib jahon uza dom,
Yuz sori halqa mo'yi mushkinfom.*

*Suvdek ul dom ichinda chehra ochib,
Qatra xaylardin anda dona sochib.*

*Kim, chu davlat qushi buyon etgay,
Bu suvu dona birla sayd etgay.*

*Yo tuman ming charog'i bayzogun,
Hayatu tab' ichinda gunogun.
Shom zebolari qilib zohir,
Tun shabistonida bo'lib soyir.*

*Ochibon har charog'i kofuriy,
Dud ila bir niqobi zanburiy...*

"Saddi Iskandariy" dostoni beshlik dostonlarining xotimasi hisoblanadi. Dostonda hukmdor Iskandar ta'rifi keltiriladi. Xamsanavislarning maqsadi Iskandar obrazini podshoh, hukmdor emas, balki odil, ilm-ma'rifatli inson sifatida tasvirlash edi.

"Saddi Iskandariy" dostonining ilmiy-tanqidiy matni 60-yillar boshida o'zbek matnshunos olimi P. Shamsiyev. tomonidan tuzilgan edi. Ammo ba'zi sabablarga ko'ra matn chop etilmagan. Matnda so'z boshi va ilmiy izohlar mavjud emas. Hozirda mazkur mant O'zbekiston Fanlar akademiyasining Hamid Sulaymonov nomidagi Qo'lyozmalar instituti arxivida saqlanadi. Hozirgi kundagi dostonning zamonaviy nashrlari ushbu ilmiy-tanqidiy matnga ham tayangan.

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” debochasida “Farhod va Shirin” va “Sab’ai sayyor” debochalarini takrorlamagan holda yozishga harakat qilgan. Buning qiyinchiligi shunda ediki, debocha bobida nafaqat o’zini o’zi, balki salaflarni (boshqa xamsanavislar) ham takrorlamasligi zarurati bor edi. Biroq chinakam iste’dod sohiblari, tajribali adiblar bu sinovlarni muvaffaqiyat bilan yengib o’tishni uddalagan, jumladan, hazrat Navoiy “Saddi Iskandariy” debochasini o’z-o’zini va salaflarini takrorlamagan holda qalam tebratgan.

“Saddi Iskandariy” dostonining III–IV boblari “Payg’ambar adabiyoti” namunalari bo’lib, uchinchi bobda sayyidul mursalin Muhammad sallallohu alayhi vasallam vasf qilinadi. Bob boshidagi Navoiy fikrlari “Nuri Muhammadiy” (Muhammad nuri) haqidagi qarashlarga asoslangan. Unga ko’ra, “..payg’ambarimiz, sallallohu alayhi va olihi vasallam, garchi shahodat olamida payg’ambarlarning oxirgisi edi, ammo g’ayb olamida ularning avvalidir. Payg’ambar alayhissalom buyurdilar: “Kuntu nabiyyan va Odamu baynal mo’i vat tiyni”, ya’ni Odam hali suv ila tuproq orasida ekanida men payg’ambar edim. Bu hadisning ma’nosi shuki, buyuklik va saxovat sohibi avvallarning avvalida (azalda) – u zamonda tanho Alloh bo’lib, boshqa narsalar yaratilmagan edi, hech qanday o’zga vujudsiz o’ziga ilk tajalli qilganida har narsaning asli yolg’iz Allohning o’zida edi. Bunda mavjudotning haqiqati ilohiy zotdan ayro bo’lmaganidek, bir biridan ham farqli emasdi. Bu martabani “taayyyuni avval” va “haqiqati muhammadiy” deytilar va boshqa barcha mavjudotning haqiqatlari u haqiqatning juzlari va tafsilotidir. Ularning surati bilan voqe’ bo’lgan tajalliyot g’ayb olamida u haqiqat suratidagi tajallidan yoyilgandir”.

Dostonning uchinchi bobi “sayyid ul-mursalin” (payg’ambarlar ulug’i) Rasuli akram vasfi na’tidan iborat. Navoiy dastlabki baytlarda payg’ambarlik nuri haqida gapirar ekan, Odam Ato (a.s.) unga o’g’il, qolganlar nabira qatoridadir deydi va barcha muqaddas kitoblarda uning xususiyatlari bayon qilinganligini ta’kidlaydi. Na’tda ilohiy kitoblarning nomi keltirilganligi va Allohning dini so’nggi ilohiy kitob – Qur’oni karim bilan kamol topganligining ta’kidlanishi bevosita “Xamsa”ning takmiliga ham ishora edi. Navoiy Payg’ambar (s.a.v.)ning barcha payg’ambarlardan ustun ekanliklari va muhri nubuvvat bilan bog’liq baytlarni keltirar ekan, dostonning bosh qahramoni Iskandarning dunyo hukmdori bo’lib, barcha shohlardan ustun ekanligiga ishora qiladi.

Rasuli akramning tug’ilishi *go’yo* ko’kda yana bir quyoshning porlashiga o’xshatiladi:

*Sening tug’mog’ing ravshan aylab jahon,
Aningdekki, tuqqay quyosh nogahon.*

Mumtoz adabiyotimiz an’anasiga muvofiq, na’tdan so’ng me’roj tuni ta’rifi keladi. Navoiy mazkur bobda payg’ambarimizning birin-ketin osmonga ko’tarilganlari, sayyoralarning bu holatni ko’rib, hayratga tushgani, nihoyat Lomakon olamiga sayr qilib, 70 ming qavat parda ko’tarilib, Yaratgan Zot bilan diydorlashganlari jarayonini kuchli pafos bilan tasvirlaydi. Ularning yerga qaytishlari ham falak ahli va maloyiklar tomonidan chuqur hayrat bilan kuzatilgani betakror badiiy san’atlar vositasida tasvirlaydi:

*Falak ahli ichra alolo tushub,
Malak xaylig'a sho'r-u g'avg'o tushub.*

*Maloyik tutub yo'l boshin javq-javq,
Tamoshosida borcha ko'nglida shavq.*

*Jamolig'a chun ko'zlarin ochibon,
Tabaq nurlar boshig'a sochibon.*

*Anga nur sochmoqqa monand bu
Ki, sochqay kishi Bahri Ummonga suv.*

Navoiy an'anaviy boblar ifodasida originallikni ta'minlash uchun, asosan, ikki xil yo'ldan boradi. Birinchi ijodiy prinsip debochani tegishli asar mavzusi va mazmuni bilan muvofiqlashtirish bo'lsa, ikkinchi ijodiy prinsip turg'un ma'no va hodisalar tasvirida poetik variatsiya imkoniyatlaridan keng foydalanish, bir holat yoki voqeaning turli jihatlariga e'tibor qaratib, yangi-yangi poetik mazmun yaratishdir. Navoiy ko'pincha mana shu ikki yo'lni omixta qilib debochalar originalligiga erishadi. Xususan, "Saddi Iskandariy" debochasida quyidagi baytni keltiradi:

*Xudoyo, musallam xudoliq sanga,
Birov shahki, da'bi gadoliq sanga.*

Ya'ni, ey Xudo, xudoliq – hukmdorlik sengagina xos, kimdakim shoh bo'lmasin, odati senga gadolik qilishdan iboratdir.

Shuni ta'kidlash lozimki, me'roj ta'rifiga oid boblar hajm jihatdan beshta dostonida turlicha: "Hayratul abror"da 53 bayt, "Farhod va Shirin"da 68 bayt, "Layli va Majnun"da 100 bayt, "Sab'ai sayyor"da 92 bayt, "Saddi Iskandariy"da 122 baytni tashkil etadi. Hazrat Navoiyning "Xamsa"dan tashqari oltinchi dostoni "Lisonut tayr"da 53 baytdan iborat. "Saddi Iskandariy" dostoni hajm jihatdan "Xamsa" tarkibidagi dostonlarning eng kattasi hisoblanadi. Doston hajm jihatidan ham, mazmun jihatidan ham eng katta hisoblanadi.

Me'roj voqeasi tunda bo'lib o'tganligi hammamizga ma'lum. Navoiy Me'rojnoma boblarni tun tasviri bilan boshlaydi. "Saddi Iskandariy"dagi bobda keltirilgan birinchi baytda kechani – me'roj voqeasi bo'lib o'tgan tunni koinot jamoliga chiroy qo'shuvchi xolga o'xshatadi. Keyin ruju' san'atini qo'llagan holda fikridan qaytib uni qop-qora, mushkin sochga qiyoslaydi:

*Demay xolkim, gesuyi mushkrez,
Qilib ofaninish uza mushkbez.*

Bu baytda ishtiyoq san'atini qo'llab sochning qora ekanligi, tunning ham qora, ham xushbo'y ekanligini nazarda tutadi. Kecha ta'rifida davom ettirib, uning juda ajoyib va go'zalligi keltiriladi.

Kecha ta'rifidan so'ng Payg'ambar sallallohu alayhi vasallam tavsifiga o'tiladi hamda o'sha kecha Ummu Honiyning uyida edi deb keltiriladi:

*Quyoshdek ulusdin nihoniy bo'lub,
Yeri hujrai Ummu Honiy bo'lub.*

Shunga o'xshash misralar Navoiyning boshqa dostonlarida ham uchraydi. Jumladan, "Layli va Majnun"da:

*Bir xobgahi nihoni ichra,
Manzilgohi Ummu Honiy ichra.*

*"Sab'ai sayyor"da:
Bo'yla tun ul mohi Muniri Jahon,
Ummu Honiy uyida erdi nihon.*

Agar yuqoridagi baytlarni tahlil qilsak, hammasidan Ummu Honiyning uyida edi ma'nosi kelib chiqadi. Me'roj haqidagi manbalarda Payg'ambar sallallohu alayhi vasallam o'sha tunda Ka'baning Hatiym qismida yotganligi aytib o'tiladi [Alixonto'ra Sog'uniy: 94-bet]. Yana ba'zi asarlarda ammasi – amakisi Abu Tolibning qizi Ummu Honiyning uyida edi deb keltiriladi [Lutfiy A.: 105-bet].

Shu ma'lumotlarga tayangan holda Navoiyning baytlarini Ummu Honiy uyida edi tarzida tahlil qilishni ma'qul topdik. Keyingi baytlarda Jabroil alayhissalom va Buroq ta'rifi beriladi:

*Ki nogoh chaqildi bir tez barq,
Ki ofoqni qildi nur ichra g'arq.*

*Demay barqkim, toyiri barqsayr,
Qo'lida bir ul nav'kim barqtayr.*

Buroqning so'zining o'zagi "barq" (yashin) dan olingan, Navoiy shunga ishora qilib, uning tez yurishini nazarda tutgan holda yuqoridagi baytlarni keltiradi.

Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallam me'roj kechasida Alloh taologa ikki yoy oralig'ida yaqin kelganligi aytiladi. Ushbu holatni hazrat Navoiy quyidagicha keltiradi:

*Bo'lib qosh uchidin ishoratnamoy,
Berib qoba qavsayndin mujda yoy.*

Me'roj tuni tasvirlanar ekan Qur'oni karimdan ham iqtiboslar olinganligiga guvoh bo'lamiz:

*Qalamg'a yetib maqdamidin kushod,
Yozib chashmzaxmi uchun "in yakod".*

Baytdagi "in yakod" ko'z tegmasligi uchun o'qiladigan duoning ilk jumlasini hisoblanib, "Qalam" surasining 51-52-oyatlaridandir.

Bob yakunida, Alisher Navoiy me'rojning oddiy voqea emasligini, Alloh inoyati bilan bo'lganligini, oddiy insonning unga aqli yetmasligini quyidagicha ta'kidlaydi:

*Munungdek safarkim emas xalq ishi,
Ki sharhi oning anglay olmas kishi.*

“Saddi Iskandariy” dostonining 122 baytlik to'rtinchi na'ti Isro va Me'roj kechasiga bag'ishlangan. U “Ul humoyi balandparvoz tayronining sur'ati ta'rifidakim, me'roj shabistonida ko'zi nargisi bila ko'ngli g'unchasi “mozog'al-basaru va mo taro” jo'yboridin shodobdurur va taqarrub ayvonida muqavvas qoshlari “qoba qavsayni av adno” e'tiboridin bahrayob”, – deb nomlanadi. Mazkur na't quyidagi baytlar bilan boshlangan:

*Ne shom ul shabistoni farxundafol,
Bulub ofarinish uzorig'a xol.*

*Demay xolkim, gesuyi mushkrez,
Qilib ofarinish uza mushkbez.
Chu oning bo'lub oshkoro isi,
Jahonni tutub mushkisoro isi.*

*Taaniy bila junbish aylab nasim,
Yoyib mushk zimnida avroqi sim.*

*Ne simin varaq, balki yuz lam'a nur,
Qilib ul shabistonda har yon zuhur.*

*Ul anvordin jirmi g'abro yorub,
Ne g'abro, shabistoni xazro yorub.*

*Falak gulshani ravza bo'stonidek,
Sipehr axtari xuld rizvonidek.*

*Maloyik inib ravshan axtar kibi,
Uchub dahr davrida shabpar kibi.*

*Bu qushlar jinohi eli chun etib,
Shayotin g'uborini barbod etib,*

*Bu yanglig' kecha ul charog'i sipehr,
Yuzi toza gulbargi bog'i sipehr...*

Xulosa qilib, hazrat Nizomiddin Mir Navoiy Me'roj voqeasini tasvirlashda har bir asarda o'zgacha o'xshatish, o'zgacha tasvirlardan foydalangan. “Xamsa” dostonlarida Me'roj kechasini chuqur vasf qiladi. Ularning eng mukammali hisoblangan, biz yuqorida o'rgangan bob ham badiiy adabiyotdagi Me'roj voqeasi tasvirining go'zal namunasi hisoblanadi. Me'rojnoma boblarda Navoiy o'zining ham diniy, ham falsafiy, ham kosmik

qarashlarini badiiy yo'l bilan ifodalab bergan. Me'roj voqeasi inson kamolotining eng cho'qqisi sifatida doim Navoiyni hayratga solib kelgan va buni baytlaridan ham anglab olishimiz mumkin. Navoiy she'riyatida chuqur ma'nolarni o'zida qamragan diniy-ma'rifiy fikrlarni teran anglash uchun, avvalo, kishidan Qur'oni karim oyatlarini yaxshi bilish, muayyan diniy bilimlarga ega bo'lish va diniy-tasavvufiy so'zlarning istilohiy ma'nolarini yaxshi bilish talab etiladi. Me'rojnoma boblar va me'rojnoma g'azallar orqali komillikka intilish g'oyasini ilgari surilgan. Bunday boblar va asarlarni o'rganish biz uchun har taraflama foydalidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sirojiddinov Sh, Davlatov O, Yusupova D. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. – 76.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами, 15-том. – Тошкент: Фан, 1999.
3. Turdiyev J. Turkiy tildagi me'rojnomalarning qiyosiy matniy tadqiqi. F.f.f.d (diss). Avtoreferat. Toshkent, 2022.
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4-томлик. 3-том. – Тошкент: Фан, 1984
5. А. Навоий «Хамса»си талқини манбалари (XV–XX аср боши). – Тошкент: Тамаддун, 2018.
6. Abdulxayrov M. "Navoiy asarlarining izohli lug'ati". – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
7. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий. Манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Тошкент: Академнашр, 2011.
8. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 7-том. Ҳайратул аброр. – Тошкент. Фан, – 1991
9. Qudratov E. Xamsa dostonlarida Isro da Me'roj bayoni va matniy tadqiqi. Mag. Diss. – Toshkent, 2023.
10. <http://www.ziyouz.com>